

**CHOLG'U IJROCHILIGIDA DUTOR CHOLG'USINING YARATILISHI VA
UNI IJRO ETISH USULUBLARI**

Shaymirova Nilufar Baxramovna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika va san'at fakulteti

Musiqa ta'lif yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Mahfuza Xo'jageldiyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolani òzbek xalqining qadimiyligi musiqa asbobi va uning paydo bòlish tarixi, yasalishi va uni ijro etish usullari.

Kalit sòzlar: Òzbek milliy asboblari, dutor oilasi, ijro etish usullari, dutor ijrochilari, pastanofka, applekatura

Аннотация: Эта статья о древнем музыкальном инструменте узбекского народа и его истории, изготовлении и способах игры на нем.

Ключевые слова: узбекские народные инструменты, дуторная семья, приемы исполнения, дуторные исполнители, пастанофка, аппликация.

Annotation: This article is about the ancient musical instrument of the Uzbek people and its history, making and methods of playing it.

Key words: Uzbek national instruments, dutor family, performance methods, dutor performers, pastanofka, applecatura

KIRISH

Òzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonida 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbusi ilgari surildi. Bu yoshlarni madaniyat san'at va sportga keng jalb etish ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan töğri foydalanish könökmasini shakllantirish kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini öz ichiga oladi. Birinchi tashabbus yoshlarni musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

MULOHAZA VA NATIJALAR

Òzbek xalq cholgularining tarixi qadimdan organib kelinadi. Òzbek an'anaviy musiqasini yiğish va organish XIX asrning 70-yillaridan boshlab, keng miqyosda olib borila boshladi. Bush ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishslash bilan birga etnografik faoliyat bilan ham ahugullanishgan. Birinchi navbatta bular A. Eyxgorn va F. Leysikardir. Xususan, A. Eyxgorn turli guruhlarga kiruvchi 36 ta xalq cholgusidan iborat katlogni tuzgan.



Xalq cholğularini yiğish va òrganish bòyicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A. Uspenskiy chuqir iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919-yili Toshkentda musiqiy etnografik bòlim ochiladi va u bu bòlimga rahbarlik qiladi. Bu bòlim olib borgan ishlardan biri xalq cholğulari kolleksiyasini yiğish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini òrganish bòldi. Dutor-Òrta Osiyo Eron va janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobidir. Duyor fors tilida „ikki tor” deb tarjima qilinadi. XV asr atroflarida paydo bòlgan deya taxminlar mavjud.

Dutor asrdan-asrga òtib òzbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholğularidan biri hisoblanadi. Bu cholğu faqat òzbek xalqining cholğusi bòlmay, balki bizni qardosh, tojik, uyğur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ham özlarining sevimli cholğusi deb hisoblanadi. Òzbek dutori muloyim nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholğulardan ajralib turadi. U asosan tut, òrik yoğochlaridan yasaladi. Dutor yakkanovoz cholğu sozi bòlib, sozandan katta ijro mahorati talab qilinadi. Dutorda yakka zarb, qoshzarb, bilak zarb, kabi asullari mavjud.

1936-1937-yillarda Toshkentda òzbek musiqa cholğularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yoğoch pardali kapron torli yangi dutorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorda malakali öqituvchilarimiz tomonidan yosh dutorchilarga ijrochilikdan saboq berilmoqda.

Dutor chalayotgan sozanda ichki kechinmalarini kuya aks etdira oladi. Chunki dutorni chalayotganda yuragidagi dard, nolani barmoqlari orqali yetkazadi. Musiqani his qilgan insongina tushuna olishi mumkin.

Dutor oilasi 5 ta:

1. Prima
2. Sekunda
3. Alt (*Tenor*)
4. Bas
5. Kontraba

Prima dutor oilasiga mansub bòlib, ushbu cholğu asbobi eng baland tovushga ega. Appilikatura jihatdan rubob prima, gijjak asboblariga òxshab ijro etiladi. Masalan pissikatto, bidratma, stakkatto va h.k. Prima dutorining birinchi tori <<lya>> (ikkinchi oktava) tovushiga ikkinchi tori <<mi>> (ikkinchi oktava) tovushiga qanday asar ijro etilishiga qarab ikkinchi tor <<re>> (ikkinchi oktava) tovushlariga ham sozlanadi.

Dutor sekunda – yangi ishlangan dutorlar oilasiga mansub cholğusi, ovoz jihatidan òrtacha registirda uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bòlib kvarta oraligidä sozlanadi. Tashqi kòrinishi dutor primadan biroz kattaroq qilib ishlangan, ya’ni dutorlarning kosasi bir hil, lekin dastasingin uzunligi har xil qilib ishlangan. Dutor sekundaning birinchi tori <<lya>> (ikkinchi oktava) tovushiga ikkinchi tori <<re>> (ikkinchi oktava) tovushiga sozlanadi.

Dutor sekunda
sozi diapazoni foydalaniladigan
tovush kengligi

I II

The image shows a musical staff with two octaves of notes. The first octave (I) starts at the bottom note and goes up to the top note. The second octave (II) starts at the bottom note and goes up to the top note. The notes are labeled I and II above the staff.

Dutor alt- ikki tor degan ma'noni anglatadi. Dutor alt yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Dutor alt mungli, mayin va òzining yoqimli tovushi bilan boshqa asboblardan ajralib turadi. Tovush jihatidan ancha past, texnik imkoniyatlari ham kichkina, lekin oxirgi yillarda tajribali va moxir ijrochilar bu asbob imkoniyatlarining barcha qitrlalarini ochib berdi. Dutor altning birinchi tori <<lya>> (birinchi oktava) tovushiga, ikkinchi tori <<mi>> (birinchi oktava) tovushiga, bundan tashqari qanday asar ijro etilishiga qarab, ikkinchi tori <<re>> (birinchi oktava) tovushlariga sozlanadi.

Dutor alt
sozi

diapazoni

foydalaniladigan
tovush kengligi

I II

Uslubiy qism

Milliy dutorga tor taqiladi. Dutorning birinchi tori <<re>> (kichik oktava) tovushiga, ikkinchi tori <<lya>> (kichik oktava) tovushiga, bundan tashqari asar ijro wtiliahiga qarab, ikkinchi tori <<sol>> (kichik oktava) tovushlariga sozlanishi mumkin, ba'zi vaqtarda esa, ikkala tor ham unisonga, ya'ni bir xil tovushga sozlanishi mumkin.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Dutor prima	1-tor «Lya» 1 oktava 2-tor «Mi» 1 oktava	«mi» 1 oktava «lya» 3 oktava	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
Dutor-sekunda	1-tor «Re» 1 oktava 2-tor «Lya» kichik oktava	«lya» kichik oktava «re» 3 oktava	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
Dutor alt	1-tor «lya» 1 oktava 2-tor «mi» 1 oktava	«mi» kichik oktavadan «mi» 3 oktava	«Mi» kichik oktava «Do» 3 oktava	Yozilgandan 1 oktava past eshitiladi

Hozirgi kunda asosan dutor altdan keng foydalaniladi. Dutor altning diapazoni qisqa bòlishiga qaramay juda chiroyli asarlar ijro etilib kelinmoqda.



Dutor qismlari

1. Dastasi
2. Kosasi
3. Asosiy xarrak
4. Shayton xarrak
5. Quloqlari
6. Pardalari
7. Tiqn ya'ni simni kòtaruvchi
8. Ovoz joyi
9. Simlari ya'ni lya va mi

Dutorni ushlagan vaqtida pastgi qovurgasini òng pastki qovurgasini òng oyoq soning ustiga qoyish lozim. Ustki qovurgasini esa ong qolning tirsagiga yaqin bilak bilan ushslash lozim. Shunda dutorning qopqoñi yuqori tomonga yon boshlashi va yelka bilan baravar bòlishi kerak. Dutorning dastasi birinchi barmoñining katta böñini bilan örtä böñin orasida va barmoqlarning hamma böñinlari bukilgan holda pardalari ustiga kelishi kerak.

Chap qòl barmoqlari:

Chap qòl barmoqlari qaysi pardani qaysi barmoq bilan bosishi kerakligini notalar ustiga raqamlar bilan kòrsatiladi. Ikkinchi torni kòproq bosh barmoq bilan bosiladi.

Zarblar

Musiqa asbobida tovush chiqarish usuli zarb deyiladi. Musiqa asarlarga turlicha joziba berish qanday zarb tanlab olinishiga bogliq. Dutor chalishda tez-tez qòllanilib turiladigan zarblar bor.



- 1) **Bilak zarb-** dutorda bu zarb uch bernoq bilan (bosh va kòrsatkich barmoq iahtirokisz) òrta barmoq, yon barmoq vajimjiloq bilan faqat pastga chalinadi.
- 2) **Terma zarb-** barmoqlarning zarbi aniq, bir tekis va bir xil kuchda bòlishi kerak. Kòrsatkich va bosh barmoqlarni ketma-ket pastga urish, undan sòng bosh barmoq kòrsatkich barmoqning yuqoriga kòtarish usulida tovush hosil qilinadi. Bosh barmoq b harfi bilan belgilanadi. Kòrsatkich barmoq esa k harfi bilan belgilanadi.
- 3) **Aylanma zarb-** bu zerb ham terma zerb kabi aniq, bir tekis va bir xil kuchda kòrsatkich va bosh barmoqlar ketma-ket pastga, sòng va kòrsatkich barmoq yuqoriga tezlik bilan kòtarish usulida tovush hosil qiladi
- 4) **Teskari zerb-** bunda kòrsatkich barmoq pastga, bosh barmoq yuqoriga, kòrsatkich barmoq pastga va bosh bermoq yuqoriga chalish usuli orqali hosil qilinadi.
- 5) **Tremolo-** bir vaqtning özida olingenan bir yoki ikki tovushni kòrsatkich barmoq uchii bilan birnecha marotaba ketma-ket tez chalinishidir.
- 6) **Pissikatto-** (chimdip chalish) -dutor chalishda bittalik va ikkitalik pissikato usuli qòlla iladi. Bittalik pissikato chalinganda bosh barmoq bilan pastga urishda tovush hosil bòladi. Ikkitalik pissikato chalinganda galma - galdan bosh

barmoqni pastga tushirish va kòrsatkich barmoqni yuqoriga galma – galdan kòtarishdan tovush hosil bòladi.

Forshlag. Forshlag nemischa söz bòlib, bosim oldidan degan ma’noni bildiradi. Forshlag özbek xalq kuylarida kòp uchraydi. Forshlaglar belg8s8 kichkina notacha bilan kòrsatib, bir pardadan ikkinchi bir pardaga tez kòchishini anglatadi. Forshlaglar takt ichidagi sanoqqa kirmaydi (sozandalar forshlagni qochirim deb ham guritadilar.

Musiqa asboblari orasida dutor òzining òng qòl zarblarining xilma-xilligi bilan ajralib giradi, uni kòngildagidek ijro etish uchun esa tinimsz mehnat qilish lozim bòladi.V.Uspenskiy va V.Belyayevlarning muallifligidagi <<Turkmenskaya muzika>> kitobida Seroxs viloyatidagi dutorchi ustoz Sulton Niyozning shogirdi Muxi- baxshi, Omon -Baxshi ògli ditorda faqat òng qòl zarblarinigina òrganish uchun bir yil vaqt ni ketkazganligi aytildi.

Xulosa: Xulosadan shuni aytish mumkinki, maqolada musiqaga tegishli bir qator tishuncha Ham tilga olingan. Xususan özbek xalqining milli cholǵulari an’analari betakror ijrochiligi yoritilgan. Dutorning kelib chiqish tarixi uning ijro usullari, ògirish holatlari aytilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dutor Gulchehra Muhamedova (Musiqa va san’at maktablarining yuqori sinf ñöuchilar uchun uslubiy qòllanma) <<Sharq >> Nashriyot Toshkent 2004
2. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev „Milliy taraqqiyot yòlimizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga kòtaramiz” Tpshlent 2017
3. Dutor Shavkat Rahimov (Musiqa va san’at maktablari uchun uv qòllanma Toshkent 2004
4. Cholǵu ijrochiligi Óktam Oripov (Cholǵ ijrochiligi va cholǵu ansamblari ñöuv qòllanma Navoiy 2019